

6. Islamic Development Bank (IsDB). *Annual Report 2023: Green Finance and Sustainable Development*. — Jeddah, 2023.

7. Global Green Growth Institute (GGGI). *“Uzbekistan Green Growth Assessment”*. — Seoul, 2022.

8. Global Environment Facility (GEF). *“Uzbekistan Country Portfolio Evaluation Report”*. — Washington, DC, 2023.

9. International Monetary Fund (IMF). *“Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program”*. — Washington, DC, 2022.

## **MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI TARTIBGA SOLISH YO‘NALISHLARI**

**Soatova Nodira Boboxanovna,**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”  
kafedrası dotsenti*

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdá mahalliy byudjetlarning daromadlarining shakllanishi va daromadlarini tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** mahalliy byudjet, mahalliy byudjetni rejalashtirish, mahalliy soliqlar, daromad bazalari, daromad siyosati, davlat byudjeti, hududlar moliyasi, mahalliy boshqaruv organlari, byudjetlararo munosabatlar, yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, majburiy to‘lovlar, soliq stavkalari, soliq tizimi, soliq siyosati, solikli daromadlar.

Mamlakatimizning rivojlanish strategiyasida alohida e‘tibor qaratilayotgan jihat ham aynan mahalliy hududlarning mustaqilligini oshirish va daromadlar bazasini kengaytirish masalasidir. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlarining mustaqilligini oshirish masalalarini o‘rganar ekanmiz, avvalo hududning iqtisodiy rivojlanishini o‘shishini ta‘minlashga erishmog‘imiz lozimdir. Hududlar moliyaviy resurslar salohiyatini oshishi mahalliy byudjetlar barqarorligini ta‘minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yurtimizning taraqqiyoti, ertangi kuni biz bugun qilayotgan amaliy ishlarga, ko‘rayotgan choralarga bevosita bog‘liq. Shu bois davlatimizning yangi taraqqiyot bosqichida har doimgidan ko‘ra ko‘proq ishlashimiz, yangidan-yangi g‘oya va tashabbuslar ustida bosh qotirishimiz kerak. Hududlar xususan tumanlarimiz byudjeti taraqqiyoti mamlakat iqtisodiyoti asosini tashkil qiladi. Shuningdek iqtisodiy taraqqiyot mamlakatning nafaqat markaziy boshqaruv organlari, balki eng quyi bo‘g‘inlarning ham iqtisodiy jihatdan oyoqqa turishi, mustaqil ravishda taraqqiy etishiga chambarchas bog‘liq. Mustaqil Davlatchiligimiz tarixida ilk marotaba qilgan Murojaatnomasida [1] mahalliy hokimlik organlarining bugungi holatiga xolisona baho berilgani, Prezidentimiz ular haqida so‘z yuritar ekan, “mahalliy hokimlik organlari oddiy masalalarni hal etishda ham vakolatga ega bo‘lmasa, buni qanday tushunish mumkin?” degan savolni ko‘ndalang qo‘ygani bejiz emas. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta‘kidlaganlaridek: “Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy byudjetlarni mustahkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidan manfaatdorligini va bu boradagi ma‘suliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu narsa mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga rag‘batlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustahkamlaydi”. Shu vazifalardan kelib chiqib “...Olib borilayotgan soliq siyosatining

asosiy yo'nalishlaridan biri, bu – resurs va mol-mulklardan samarali foydalanish maqsadida ularni mahalliy byudjet daromadlaridagi salmog'ini oshirishdan iboratdir [2]. Buning asosiy sababi mamlakatimizda mavjud bo'lgan.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini umumdavlat soliqlari hisobiga shakllantirilishi ular xarajatlarini mahalliy byudjetlarning birlamchi daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlar va yig'imlar hisobiga moliyalashtirish imkoni yo'qligi bilan ifodalanadi. Shu o'rinda, ta'kidlash lozimki, mahalliy hokimiyat organlarining o'zlariga bevosita biriktirilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha vakolatlarining cheklanganligi sharoitida, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar amalga oshirilishi ularda o'z daromadlari bazasini mustahkamlashdagi vakolatlarini yanada cheklab qo'ymoqda. Shuning bilan birgalikda, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishning subvensiya berish tizimining mavjudligi ularni yuqori byudjetga tob'eligini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy hokimiyat organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini bermaydi. Hozirgi kunda mahalliy byudjetlarni shakllantirishdagi tizimli va tashkiliy muammolar mavjud. Tizimli va tashkiliy muammolar hududlarning moliyaviy imkoniyatlariga bevosita bog'liqdir. Moliyaviy imkoniyatlar hududning tabiiy sharoitlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, hududning xo'jalik tuzilish va ixtisoslashuviga va mamlakat mehnat taqsimotidagi mavqeiga va boshqa bir qator omillarga bog'liqdir. Daromadlar manbalari belgilanishi va ular mahalliy byudjetlarga tushishi qonun asosida mustahkamlab qo'yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va byudjetlarni shakllantirishdan manfaatdorligini oshiradi.

Hududlarning moliyaviy-byudjet rivojlanishi istiqbollari belgilanayotganda imkon doirasida shunga e'tiborni qaratish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ma'muriy usullardan holi, yuqori organlarning aralashuvisiz, asosan, hududda yaratilgan va jalb qilingan mablag'lar hisobidan hal etilishi kerak [3].

Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda tartibga soluvchi daromadlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan hozirgi paytda amaldagi tartibga muvofiq ravishda mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlashda quyidagilardan tartibga soluvchi daromadlar sifatida foydalanilayotganligini qayd etib o'tishimiz mumkin.

Mahalliy byudjetlar darajasida solikli daromad siyosatining ustuvor vazifalari etib belgilandi:

1. Mahalliy byudjetlar daromad bazalarini mustahkamlash hamda xarajatlarning tasdiqlangan parametrlarini o'z vaqtida, maqsadli moliyalashtirish, ijtimoiy soha ob'ektlari va infratuzilmani yanada rivojlantirish va tegishli darajada saqlab turishni ta'minlash ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, moliya va soliq organlarining javobgarligini kuchaytirish;

2. Mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish uchun tizimlilik asosida qo'shimcha rezervlarni aniqlab borish;

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi va natijaviyligi mahalliy byudjetlarni o'z vaqtida va zarur miqdorda moliyaviy mablag' bilan ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad manbalari hajmini oshirish, xususan, bu borada mahalliy hokimiyat organlarining byudjet ijrosini ta'minlashdagi manfaatdorligini kengaytirish, mahalliy byudjetlar ijrosi jarayonida keng jamoatchilik fikri va ishtirokini ta'minlash muhim ustuvor ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017y.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
3. Qosimova G.A. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash. O'quv qo'llanma. - T.: "Fan va texnologiya". 2007 y.

## **ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

### **Базаров Назиржон Собирович**

*Тошкент халқаро молиявий бошқарув ва технологиялар университети  
"Иқтисодиёт ва бошқарув" кафедраси доцент в.б., и.ф.н.*

**Аннотация.** Мазкур тезисда давлат харидларини такомиллаштириш йўллари илмий асосланган ҳолда таҳлил қилинган. Давлат харидларининг ҳозирги кундаги ҳолати, ундаги мавжуд муаммолар ва камчиликлар аниқ мисоллар билан очиб берилган. Шу билан бир қаторда, давлат харидларини амалга оширишда рақамлаштириш, электрон тизимларни жорий этиш орқали самарадорлик ва шаффофликни ошириш имкониятлари баён этилган.

**Калит сўзлар:** Давлат харидлари, давлат бошқаруви, харид тизимини такомиллаштириш, коррупцияга қарши кураш, харидларнинг рақамлаштирилиши, шаффофлик, иқтисодий самарадорлик, электрон харид тизими, халқаро индекс, давлат харидлари мониторинги, ислохотлар.

Бугунги кунда жаҳон амалиётида давлат харидлари тизимида рақамлаштириш ва электрон бошқарув тизимларини жорий қилиш орқали коррупция ҳолатларига қарши курашишда ижобий натижаларга эришилмоқда. Халқаро иқтисодий ташкилотларнинг таҳлилларига кўра, электрон харид тизимларининг самарали ишлатилиши харажатларни камайтирибгина қолмай, давлат маблағларининг самарали сарфланишини оширади ва иқтисодий кўрсаткичларга ҳам сезиларли таъсир қилади.

Ривожланган мамлакатларнинг илғор тажрибаси шуни кўрсатадики, давлат харидлари тизимини электронлаштириш ва автоматлаштириш орқали нафақат жараёнларни тезлаштириш, балки коррупция хавфини ҳам сезиларли даражада камайтириши мумкин. Бу борада Жанубий Корея, Сингапур ва Европа Иттифоқи мамлакатлари тажрибаси алоҳида эътиборга молик бўлиб, ушбу мамлакатларда давлат харидларини рақамлаштириш орқали сезиларли иқтисодий самарадорликка эришилган.

Юқоридаги муаммолардан келиб чиққан ҳолда, ушбу тезиснинг асосий мақсади давлат харидларидаги мавжуд ҳолатни таҳлил қилиш, унинг самарадорлигини ошириш имкониятларини аниқлаш ҳамда халқаро илғор тажриба асосида тизимни янада такомиллаштиришга йўналтирилган амалий тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Давлат харидларини амалга оширишда юзага келётган муаммоларни бартараф этишга ҳамда соҳада шаффофликни таъминлашга қаратилган кўплаб тадқиқотлар олиб борилган.